

Gilam turlari bilan bog‘liq terminlar

Qodirova Mashhura

Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada amaliy san‘at sohasi hisoblangan gilamchilik turlari bilan bog‘liq terminlar tahlil qilindi. Atamalar izohlanib, ma‘naviy guruhlariga ajratilib o‘rganildi. Amaliy san‘at leksikasining o‘zbek tilining rivojlantirishdagi ahamiyati ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: arqoq, sachoq, qoqma, gulacha, udim, qiyim, qinnaqsh.

O‘zbek tilshunosligida o‘zbek tili olamning boy va rang-barang ifoda vositalari bilan ajralib turadigan tillaridan biri ekanligi allaqachon tan olingan. Ona tilimizning fonetik, morfemik va morfologik, leksik va sintaktik imkoniyatlari shunchalik xilma-xil va ulug‘vorki, unda davrimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, harbiy, texnikaviy voqeliklari, xalqimizning yuksak tafakkuri, ma‘naviyati va madaniyati, fani, xo‘jaligi, sanoati va sporti, etnologiyasi va ruhiyatini o‘zida aks ettirgan lisoniy birliklar majmui to‘la mujassamlangan. “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta‘minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”¹. Mazkur fikrlar har bir fan sohasida, jumladan, o‘zbek shevashunosligida ham chuqur izlanishlar olib borish zarurligini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan Xorazm shevalaridagi amaliy san‘at leksikasi ham o‘zbek tilining milliy xususiyati va ontologik tabiatini o‘zida aks ettirishi bilan ajralib turadi.

Har bir kasb –hunar leksikasi har qachon qadim zamonlardan beri qo‘llanib kelayotgan so‘z – terminlar zahirasi ega bo‘ladi. Kasb – hunarning keyingi taraqqiyoti jaroyonida leksika sostavi o‘zgarib boradi: terminlarning ba‘zilari eskirib, iste‘moldan chiqadi, yangi so‘z – terminlar bilan boyiydi. Bir qism eski so‘z va terminlarning ma‘nolari ishlab chiqarishning yangi taraqqiyoti sharoitida o‘zgarib, yangi ma‘nolarda ishlatila boshlaydi.

Xorazm shevalarida gilamchilik leksikasini o‘rganish natijasi shuni ko‘rsatadiki, moddiy boyliklar ishlab chiqarish qurollari, asbob –anjomlar, ular o‘rnashgan joy, mahnat, texnologik jarayon va mahsulot turlarining nomlari dastlabki davrda asosan

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи, 2019, 22 октябрь, № 218 (7448).

eskicha davom etib turgan. Gilamchilikda ishlar mashinalashib ketgandan so‘ng ham yangi tushuncha va yangi buyumlarni nomlash uchun eski terminlardan foydalanish hollari uchraydi, lekin ko‘plari eskirib, iste‘moldan chiqib qoladi. Mashinalar, ularning qismlari va ular bilan bog‘liq bo‘lgan ish jarayonlarini ifodalash uchun yangi terminlar ham qabul qilinadi.

Xorazmda gilamchilikning qo‘l mehnati davri leksikasidagi ko‘pgina so‘z-terminlar (ish qurollari, asbob-uskunalar nomlari va boshqalar) asosan XIX asrdagi terminlarning qariyb o‘zidir. Chunonchi: do‘kon, ennavuch, gulatayoq, oqlov, erish, arqoq, turkman, guli, sochoq, qoqma, gulacha, udima, qiyim, qinnaqsh, qiyim, siri, anjir qaychi, qo‘chqorshoxi, qayoq, taka guli, qirq minus, kapsa gul kabilar. Bu tipdagi ko‘pgina so‘z-terminlar XIX asrda va undan ilgari ham gilamchilar leksikasida mavjud edi. Tilimizning taraqqiyoti natijasida bu so‘zlarning ko‘pchiligi umumiste‘moliy so‘zlarga aylangan. Bu o‘rinda shuni aytib o‘tish kerakki, kasb-hunar ahllarining termin tanlash tajribasida birinchi navbatda asosiy lug‘at fondida mavjud so‘zlardan foydalanish odat tusiga kirib qolganligi ko‘zga tashlanadi. Bu hol o‘zbek tili asosiy lug‘at fondining mustahkam va yashovchanligini yana bir karra isbotlaydi. Masalan, to‘qish, yigirish, tekislash kabi so‘zlar asosiy lug‘at fondiga oid so‘zlardir. Yung, teri bo‘yoq kabi so‘zlarning (mahsulot nomlarining) qadimgi turkiy til yodgorliklarida, lug‘atlarda qayd qilinishi bu terminlarning eramizdan oldingi I asrning ikkinchi yarmi yodgorliklariga taalluqli ekanligini ko‘rsatadi². Masalan: kiygizlik yung-kiygiz to‘qishga mo‘ljallangan yung-sherst, perya.

Bo‘yoq- красить

Bo‘yoqchi- красильщик

M. Qoshg‘ariyning aytishicha, yung so‘zi arg‘u-yag‘mo hamda qarluq xalqlarida (paxta, bo‘z, mato) ma‘nolarida ishlatilgan³.

Gilamchilik tarixida eng muhim fakt - bu turkiy xalqlar naqsh san‘ati turlarida ko‘p uchraydigan, turkiy tillarga xos bo‘lgan oy, qo‘chqor shoxi kabi arxaik motivlarning mavjudligidir. Bundan tashqari, tadqiqotchilar eramizdan oldingi II asr, I asr arxeologik topilmalarida ishlatilgan, qadimgi turkiy tilga xos bo‘lgan *bosma, ilma* kabi atamalar hozir ham shu ma‘noda qo‘llanilishini qayd qiladilar.

Gilamchilik leksikasida, yuqorida aytib o‘tganimizdek, qadimdan qo‘llanib kelayotgan so‘z-terminlarining ma‘nolarini o‘zgartirish yo‘li bilan ham yangi atamalar yuzaga kelishini ko‘ramiz. Masalan, oroyish so‘zi tojik tilida bezakzeb

² M. Қошғарий. Туркий сўзлар девони, С. Муталлибов таржимаси, ЎзФА нашр., 1960, 465- бет.

³ М. Қошғарий, кўрсатилган асар, III том, 267-бет.

ma'nosida (ruscha украшение, наряд, убор- убранство) qo'llanilgan. Kasb-hunar leksikasida bu so'z narsaning jakartini buzib turuvchi ortiqcha joylari: chunonchi, gilam to'qishda qirg'oqlarida qolgan ortiqcha iplar ma'nosida qo'llaniladi. Bular qirqib olib tashlanadi. Bu ish- oroyishini olish deb yuritiladi. Oroyish, oroyishini olish terminlari o'sha ma'noda mashinachi (kiyim tikuvchi)lar, etikdo'zlar, metallsozlar leksikasida ham ishlatiladi.

Termin ma'nolarini o'zgartirish holati boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlarda ham uchraydi. Masalan, gilamchilik leksikasida ishlatiladigan qaychini tojik so'zlashuv nutqida *qaychi*, adabiy tilda *miqroz* deb yuritiladi. O'zbek metallsozlari esa faqat sham so'xtasini kesadigan asbobnigina *miqroz* deyilar

Qo'y junini qirqadigan qaychi tojiklarda *dukorda* deyiladi⁴. O'zbek metallsozlari bu termini dukart shaklida, ammo qaychining mayday turi ma'nosida ishlatadilar.

Xalqimizning milliy-madaniy an'analari va tarixini bevosita aks ettiruvchi leksik birliklarni atroflicha o'rganishda, moddiy madaniyat yodgorliklaridan biri hisoblangan, gilamchilik buyumlari ishonchli manba sifatida muhim ahamiyatga ega. Har bir tilning leksik tarkibi shunday xazinaki, unda shu xalq tarixiga oid qimmatbaho ma'lumotlar saqlanadi. Xalqning kelib chiqishi, rivojlanishi, hayoti va madaniyatini leksikada o'z aksini topadi. Bunda amaliy san'at leksikasi muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи, 2019, 22 октябрь, № 218 (7448).
2. М. Қошғарий. Туркий сўзлар девони, С. Муталлибов таржимаси, ЎзФА нашр., 1960, 465- бет.
3. Таджикско-русский словарь, 1954, 139-бет.

⁴ Таджикско-русский словарь, 1954, 139-бет.